

**O'QUVCHILARNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARINI ANIQLAGAN HOLDA TA'LIM TARBIYA
JARAYONINI TASHKIL ETISH**

*Toshtemirova Mavluda Turg'unovna Denov tadbirkorlik va
pedagogika institute Pedagogika ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarni o'rgangan holda ta'lim tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, masalasi yoritilgan. Har bir o'quvchining bilish faolligi, temperament turi, qiziqishlari va qobiliyatini aniqlash, ta'lim sifatini oshirishda muhim omil sanaladi. Tadqiqotda psixodiagnostik metodlar yordamida o'quvchilar shaxsini har tomonlama tahlil qilish va pedagogik yondashuvni individuallashtirishning ilmiy asoslari yoritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема организации эффективного процесса обучения и воспитания с учётом индивидуальных психологических особенностей учащихся. Определение познавательной активности, типа темперамента, интересов и способностей каждого ученика рассматривается как важный фактор повышения качества образования. В исследовании раскрываются научные основы всестороннего анализа личности учащихся с использованием психодиагностических методов и индивидуализации педагогического подхода.

Annotation: This article addresses the issue of organizing an effective educational and upbringing process based on the study of students' individual psychological characteristics. Determining each student's cognitive activity, temperament type, interests, and abilities is regarded as an essential factor in improving the quality of education. The study reveals the scientific foundations of a comprehensive analysis of students' personalities through the application

of psychodiagnostic methods and the individualization of the pedagogical approach.

Kalit soʻzlar. *Individual yondashuv, shaxs rivoji, ta'lim-tarbiya jarayoni, temperament, individual psixologik xususiyatlar.*

Kirish. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi- har bir ta'lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ularni mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va ijtimoiy faol shaxs sifatida jamiyatga yetkazib berishdan iboratdir. Bu jarayonga o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish hamda ta'lim-tarbiya jarayonini ushbu xususiyat va qobiliyatlarga mos tarzda olib borish muhim sanaladi. Ta'lim jarayoni bu faqatgina bilim berish emas balki o'quvchining psixologik holati, emotsional muvozanati, motivatsion omillari va bilish jarayonlarini hisobga olgan holda uning har tomonlama kamol topishiga yo'naltirilgan murakkab tizimdir. Shu bois, har bir o'quvchining temperament turi, qobiliyati, tafakkur uslubi va hissiy reaksiyalarini aniqlash ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi rivojlanishining tabiiy sharoitlari, uning jismoniy tuzilishi nerv va ichki sekretiya bezlari sistemasi, jismoniy tuzilishidagi afzalliklari va nuqsonlari uning individual-psixologik xususiyatini shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Lekin biologik omillar kishi shaxsining tarkibiga singib, ijtimoiy omilga aylanib qoladi va keyinchalik ijtimoiy muhitda mavjud bo'ladi. Temperament esa shaxsning psixik faoliyati dinamikasini belgilovchi psixikaning barqaror, o'zgarmas, individual tipologik xususiyatlari majmuasidir. O'quvchilarning temperament tipi ta'lim jarayonida muhim psixologik omil hisoblanadi. Shu boisdan, metod va shart-sharoitlarni izlab topish zamon talabi. Masalan, melanxolik tipi yuksak sinzitivlik xususiyatiga ega, sezgirligi yuqori, arzimagan sabablarga ko'ra ham ko'zlaridan yosh oqib ketadigan arazachan, psixik tempi sust va rigit. Sangvinik tipiga doir insonlar esa reaktivlik yuqori, bo'lar-bo'lmas narsaga xoxolab kulaveradigan diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo'r

qo'zg'alish bilan javob beradi. Yangi sharoitga osonlik bilan o'rganadi. Bu ikki tip vakillarini bir muhitda aynan bilim olishlari juda qiyin kechadi. Shu sababli ushbu jarayonda o'qituvchidan talab qilinadigan yagona narsa, har bir o'quvchi bilan psixologik individual yondashuvni ta'minlash uchun biz dars jarayonida qo'llanishi muvofiq bo'lgan metodlarga yuzlanamiz.

Bu metodlar quyidagilardan iborat:

Differensial yondashuv metodi-o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlariga qarab topshiriqlar dars va aloqa shaklini moslashtirish.

Interfaol metodlar (munozarali-rolli o'yinlar) sangvinik o'quvchilarning faol muloqotga kirishish ehtiyojini qondirishi bilan birgalikda melonxolik o'quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb etadi.

Individual suhbat va psixologik qo'llab quvvatlash metodi. Melonxolik tipidagi o'quvchilar uchun ijobiy emotsional muhit yaratish va ularning ichki ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kuzatuv va refleksiya metodlariga-o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi emotsional o'zgarishlarni tahlil qilib o'qituvchini dars jarayoniga moslashtiradi.

Juftlikda ishlash metodi-sangvinik va melonxolik o'quvchilarni birgalikda ishlashga jalb etish orqali va ularning ijtimoiy moslashuvini va o'zaro to'ldiruvchi qobiliyatlarini namayon etadi.

Mazkur metodlar o'quvchilarning temperament farqlarini bartaraf etish ularning psixologik qulayligini ta'minlash va ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan, kompleks yondashuvni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlariga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish. Bu shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasining amaliy ifodasi bo'lib u o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini, o'z imkoniyatlarini to'liq namayon etishini ta'minlaydi. Mazkur metodlar o'quvchining shaxsiy faolligini oshiradi,

bilimlarini mustaqil egallashga undaydi, hamda emotsioanal muvozanatni ta'minlaydi. Eng muhimi bu yondashuv o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik, ishonch va ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. “Umumiy psixologiya darslik” Toshkent “Innovatsiy-Ziyo” 2021
2. “Shaxs psixologiyasi va rivojlanish nazariyasi” Hasanboeva Sh, Toshkent fan, 2021
3. “Pedagogik-psixologiya asoslari”. Raximova. M, Toshkent:TDPU, 2020
4. “Didaktika:ta'lim nazariyasi va amaliyoti”. Yo'ldoshev Toshken:TDPU,2019
5. Jalolov J. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. Toshkent: TDPU, 2021.